

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**NAIM KARIMOV MA’RIFIY ROMANLARI POETIKASI**

**Xumora Jo‘raqulova,**  
*ToshDO ‘TAU 1-bosqich tayanch  
doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyotshunos olim, akademik Naim Karimovning “Cho‘lpon” va “Maqsud Shayxzoda” ma’rifiy romanlari poetikasiga to‘xtalib o‘tilgan. Mazkur ma’rifiy romanlardan misollar keltirish orqali bu tipdagi romanlarda mayjud bo‘la oladigan poetik ifoda unsurlari sharhlangan.

**Kalit so‘zlar:** Ma’rifiy roman, ilmiylik, badiiylik, asar poetikasi, obrazlilik, peyzaj, portret.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается поэтика образовательных романов «Чулпан» и «Максуд Шейхзаде» литературоведа, академика Наима Каримова. На примерах из этих биографических романов объясняются элементы поэтической выразительности, которые могут присутствовать в биографических романах этого типа.

**Ключевые слова:** Учебный роман. наука. артистизм. поэтика произведения. образы. пейзаж. портрет.

**Abstract:** This article focuses on the poetics of the educational novels “Cholpon” and “Maksud Sheikhzade” by academician Naim Karimov. The elements of poetic expression that can be present in novels of this type are explained by giving examples from these educational novels.

**Key words:** Educational novel, science, artistry, the poetics of the work, imagery, landscape, portrait.

Poetik ya’ni badiiy ifoda asarni go‘zallik, san’at darajasiga olib chiqadigan unsurlardan biri hisoblanadi. Bu hodisa asar shakli va mazmuniga birdek daxldordir. Badiiy asarlarda poetik ifoda yaqqol ko‘zga tashlanadi. To‘g‘rirog‘i, real voqelik poetik ifodalanganidagina u badiiy asar maqomiga ko‘tarila oladi. Badiiy asarda narsa va hodisalarni jonli tasvirlash, his-tuyg‘u va kechinmalarini yorqin ifodalash, asarning jozibali tili – bularning barchasi poetik ifodaning qismlari sananladi. Peyzaj va portret yaratish mahorati ham aynan yozuvchining voqelikni poetik ifodalay olish qobiliyati zamirida namoyon bo‘ladi. Fikrni obrazli va emotsiyal tarzda bayon etish voqelikni poetik ifodalash hisoblanadi. Badiiy ifoda badiiy asarda etakchilik qiladi. Ma’rifiy nasrdan esa boshdan oxir badiiylikni izlash mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Zero, ma’rifiy nasr badiiylik va ilmiylik omuxtalashgan nasr sanaladi. Shunday ekan, poetik ifoda ma’rifiy asarlarda ikkilamchi mavqeni band etadi. Ma’rifiy asarlardan badiiy ifoda komponentlari bo‘lmish o‘xshatish, jonlantirish, sifatlash, giperbola, peyzaj kabilarning yorqin ifodalanishini qidirish maqsadga muvofiq emas. Chunki bunday asarlarda fakt va dalillar, hujjatlar va xotiralar etakchi pozitsiyani egallagan. Ilmiy-ma’rifiy nasrda muallif adabiy figura hayoti va ijodini yoritishda tadqiqotchi-olim nuqtayi nazari bilan yondashadi.

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

Naim Karimovning “Cho‘lpon”, “Maqsud Shayxzoda”, “Hamid Olimjon”, “Usmon Nosir” ma’rifiy romanlarida ham mana shunday nuqtayi nazar etakchilik qiladi. Ammo, bu bilan mazkur ma’rifiy romanlarda poetik ifoda unsurlari mutlaqo yo‘q demoqchi emasmiz. Badiiy asarlardan farqli o‘laroq, bu turdagи asarlarda badiiy ifoda asarni tashkil qiluvchi muhim omil pog‘onasini zabit etmagan demoqchimiz, xolos. Lekin, shu bilan birga muallif bu asarlarini alohida muhabbat, jo‘shqinlik, pafos bilan yaratganiga romanlarni mutolaa qilish mobaynida guvoh bo‘lamiz. Jumladan, “Cho‘lpon” ma’rifiy romanining “Debocha”sidayoq poetik ifoda qirralari yarq etib ko‘zga tashlanadi. “Xayol, xayol... Yolg‘iz xayol go‘zaldir...” Cho‘lpon bir she’rini shunday so‘zlar bilan boshlagan. Va darhol dilini o‘rtab turgan fikrni qog‘ozga tushirgan: “Haqiqatning ko‘zlaridan qo‘rqaman”, deb. Uning haqiqat ko‘zlaridan qo‘rqishi ajablanarli emas. U yashagan davrning, uni yamlab yutgan davrning ko‘zları – shu davr tizginini o‘z qo‘liga olgan firqaning ko‘zları qonga, ersuvi, mol-mulki tortib olingan boylarning ko‘zları alam va sitamga, Belomorkanalndan tortib Kolimaga qadar cho‘zilgan azobgochlarga badarg‘a etilgan va o‘ng kelgan erda otib tashlangan begunoh kishilarning ko‘zları faryod va fig‘onga, tongdan to qora shomga qadar ter to‘kkan mehnat ahlining ko‘zları esa nola va iltijoga to‘la edi. Ana shu ko‘zlar u ko‘rgan, u qo‘rqqan Haqiqatning Ko‘zlaridir (3-bet). Parchadan shu ma’lum bo‘ladiki, N.Karimov romanini faqat hujjatlar-u dalillar bilan to‘ldirib tashlamaydi, balki ularga o‘zining aqliy va hissiy munosabatini ham singdirib boradi. Uning davr ruhiyatini shu qadar jonli ochib bergen mana shu parchasining o‘ziyoq butun bir asarga badiiy ruh bag‘ishlaydi.

Mazkur ilmiy asarni yozish uchun hujjat va ma’lumotlarning etarliligi sabab, to‘qima voqealarga, to‘qima obrazlarga ehtiyoj qolmaydi. Adabiyotshunoslariimiz esa to‘qimasiz badiiy asar bo‘lishi mumkin emas deb hisoblaydilar. Rus yozuvchisi M.Gorkiy: “San’at to‘qima bilan tirik...” desa, A.Glodko: “to‘qimasiz yaxshi roman bo‘lmaydi”, deydi.<sup>1</sup> Chindan, san’at asarlarida xayol va tasavvurda yaratilgan obraz va voqealarsiz to‘la mukammallikka erishish mumkin emas. Biroq, Naim Karimov asarlarining yashovchanligi, ahamiyatli tomoni ham unda to‘qimalarning yo‘qligi va kitobxonlar ehtiyojidan kelib chiqib, faqat dalil va hujjatlarga tayanilib yaratilganligidir. Shuni ham unutmaslik kerakki, faqat to‘qima sahnalargina badiiy ifoda unsurlarini o‘zida tashimaydi. Muallif dalillarni o‘zaro mantiqan bog‘lash uchun badiiy ifoda vositalaridan samarali va o‘rni bilan foydalanadi. Quyidagi parchaga ham bir nazar tashlasak: Foiqa aya (Cho‘lponning singlisi)ning xotirasida qolgan shunday gurunglarga Sulaymon bazzoz (Cho‘lponning otasi)ning o‘zi ham

<sup>1</sup> Зайнитдинов А. Бадий асарда факт ва тўқима. – Т.: Ўзбекистон, 1980.

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

ishqiy va hajviy g‘azallarini o‘qir, Bimiy, Mahjuriy, Zokiriy singari andijonlik qalam ahli bilan yaqin ekanligidan g‘urur hissini tuyar va ular bilan “bir payola ko‘k choy” atrofida bo‘lib o‘tgan suhbatlarda o‘zbek va fors adabiyotining she’riy epkinlaridan ko‘krak to‘ldirib nafas olar edi. U garchand g‘azal mashq qilib, hatto ularni qo‘lyozma devon holiga keltirgan bo‘lsa-da, o‘ziga ortiq baho bermas, o‘zining go‘zal Sharq she’riyati chamanzoriga munosib bulbul emasligini bilar va, ehtimol, shuning uchun o‘ziga Rasvo degan taxallusni tanlagan edi (24-bet). Olimning Sulaymon bazzozning Rasvo taxallusini tanlashiga go‘zal bir badiiy izoh bergeniga qoyil qolmay ilojimiz yo‘q. Sulaymon bazzoz ijodiga daxldor bo‘lgan bu parchada uning ijodga bo‘lgan qalb intilishi N.Karimovga xos bo‘lgan poetik tasvirlar orqali ifodalanadi. Yoki, “Ilm istab...” sarlavhali lavhada muallif o‘zining ma’rifiy maqsadlaridan yana birini quyidagi tarzda kitobxoniga badiiy tasvirlab beradi. “Agar inson ruhiy olami va insoniy qiyofasi avvalo oila muhitida kurtak chiqarib, sekin-asta yashil barglar bilan o‘ralsa va gulga kirsa, uning bilim doirasi mакtabda kengayadi, xususiy mutolaa esa mакtabda terilgan gullarning ko‘rkam guldastaga aylanishiga imkon tug‘diradi”(26-bet). Muallif inson ruhiy olamini gul novdasiga, uning gullab yashnashida ta’lim-tarbiyaning ahamiyatini esa shu gulning parvarishlovchisiga qiyoslaydi. Tadqiqotchi-olim Cho‘lponning muhabbat sahnalarini qalamga olar ekan, ularga ilmiy yondashmaydi, zero, bu juda mantiqsiz bo‘lar edi. Bu tuyg‘uni ilmiy asoslashning hech iloji yo‘q. Muallif Cho‘lponning mashuqasi bo‘lmish Obidani nurga qiyoslaydi(100-bet). Go‘yo Cho‘lpon Mohiro‘yadan ayrilganida zulmatga tushib qolgan-u, uni Obida ismli nur yorug‘ kunlarga olib chiqqandek tasvirlaydi. Uni Cho‘lponning “Kleopatra”si prototipi sifadida baholaydi. Shu bilan birga, Obida bilan Cho‘lpon munosabatlariga darz ketishini ham o‘ziga xos poetik tarzda ifoda etadi. Ya’ni “Cho‘lponning Obidaga bo‘lgan muhabbat kemasi ham dengiz qoyalriga borib” urilishiga qiyoslanadi. U muhabbatni hayot dengizida suzib yurgan kemaga, qoyalarni esa taqdirning kutilmagan zarbalariga mengzaydi. Ijodkorlarning shaharlarga talpinishini esa, muallif kapalakning o‘tga intilishiga o‘xshatadi(359-bet). Muallif mana shu singari o‘rinlarda o‘zini ijodkordek tutadi va go‘zal tashbehtar topa biladi. Umuman olganda, muallif Cho‘lponning ruhiy kechinmalarini, ishqiy iztiroblarini iloji boricha jonli, badiiy ifodalashga intiladi. Ijodkorning she’rlaridan parchalar keltirib, ularga shoirona nigoh bilan boqishga, uning qalb kechinmalarini shoirga hamard insondek tasvirlashga harakat qiladi. Ayni mana shu o‘rinlar ham asarning o‘qishliligini ta’minlaydi.

Naim Karimovning yana bir ajoyib ma’rifiy-biografik romani bo‘lmish “Maqsud Shayxzoda”da ham poetik ifodalar, voqelikning badiiy talqinlari talaygina. Muallif qahramonining “ehtiros” so‘zini sevishini aytib, o‘zi ham imkon qadar

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALAR”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

qahramoni sevgan mana shu so‘zni asarida qo‘llashga intiladi va o‘z navbatida bu asarni ehtiros bilan, pafos bilan, shoir va olimga bo‘lgan alohida hurmati va cheksiz muhabbat bilan yaralganiga sahifama-sahifa guvoh bo‘lib boramiz. Ayniqsa, muhabbat sahnalarini ifodalashda muallif hech ilmiylikka asoslanishni istamaydi. Shayxzodaning bu intim tuyg‘ularini nazokat bilan asarda aks ettiradi. Mana o‘sha sahnalardan biri: “Qishning ayozli kunlari kechayotganiga qaramay, Maqsud bilan Sakinaxonim muhabbat bahorida yashab, hayotlarining eng baxtli kunlarini kechira boshladilar. Ular nazarida tevarak-atrofnı qoplagan narsa qor gilami emas, balki bahorda ochilgan olma va o‘rik daraxtlarining er yuzini quchib-to‘ldirib yotgan gullari, daraxt shoxlariga qo‘ngan qarg‘alar emas, balki nima uchundir sayrashdan dam olayotgan bulbul va qumrilar edi. Sakina degan gulning Shayxzoda bag‘ridan joy olishi bilan uning hayotiga chinakam baxt va bahor tarovati kirib kelgandi.”(62-bet) Muallif an’anaviy timsollardan, o‘xshatishlardan ustalik bilan foydalangan. Muhabbatni bahorga, go‘zal yorni gulga, baxtni esa bahor tarovatiga qiyoslagan. Ishq-muhabbat tufayli dunyoning oshiqlar nigohida o‘zgacha akslanishini ham mahorat bilan tasvirlagan.

O‘tgan asrning Cho‘lponlar-u Maqsud Shayxzodalar yashagan davrida masrur onlar nisbatan kam bo‘lgan. Ular har lahzalarini hadik va xatarda, tuhmat va malomat toshlari ostida o‘tkazganlar. Bu kabi ayanch hollarni ham muallif qahramonlari ruhiga monand tarza ifodalaganki, bu hislarning kitobxonga yuqimlilagini ta’minlagan. Asardan ma’lum bo‘ladiki, Shayxzoda Toshkentda yashagan ilk yillarini sarson-sargardonlikda, ko‘chama-ko‘cha ko‘chib yashagan. Shunday kunlarning birida, hukumat unga uy berib qahramonimizni suyuntirati. Ammo bu ko‘pga bormaydi. Hukumatning ishini qarangki, hali Maqsud u uyda yashab ulgurmay uning ko‘chlarini ko‘chaga uloqtirib, uyni qaytib oladi. Shayxzodaga ega “Bu uyni kimga lozim ko‘rgan bo‘lsak, o‘shanga berdik. Bu haqda sizga hisob berishimiz shart emas!”(65-bet) deb sovuqqina javob beradilar. Shu paytdagi Shayxzodaning holatini muallif ajoyib tarzda ifodalab beradi. Uning qalb iztiroblarini kitobxon darrov his etadi. Mana o‘sha parcha: “Shayxzoda yo‘lakning chekkasida g‘aribona yotgan bu anjomlarini ko‘rib, yuragi uvishib ketdi. Odatda egasi o‘lganda, uning mollari shunday g‘arib bir ahvolda ingrab, unsiz faryod chekib yotardi...”(66-bet). Bu anjomlarning emas, Shayxzodaning faryodi edi. Muallif mana shu o‘xshatishlar orqali shoirining o‘sha lahzalardagi ruhiy azoblarini qayta tiklay olgan.

Muallif asarning yana bir o‘rnida esa shoirlarni bog‘bonga o‘xshatadi. “Ular daraxt ekmasa-da, asar yozadi. Bu asardan uning o‘zi emas, boshqalar bahramand bo‘lishadi.”(123-bet) deydi. Shoirning adabiyot olamida o‘zini erkin his etishini, adabiy muhit uning uchun qadrdon uyidek ekanligini ham muallif ajoyib tarzda

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

ifodalaydi. Shayxzodaning Moskvada adabiyotchilar uyi restoraniga tashrif buyurishini adib quyidagicha badiiy ifodalagan: Shayxzoda singari serzavq va sermehr kishilar esa shu erda o‘zlarini shaffof suvdagi baliqdek his etar edilar(165-bet).

Naim Karimov sevimli qahramonining masrur kunlarini qanchalik betakror o‘xshatishlar bilan yoritgan bo‘lsa, uning g‘amgin kunlarini ham shunday iztirob bilan, kitobxonning qalbiga etib boradigan qilib tasvirlab bera olgan. 50-yillarda Maqsud hayotidagi shunday og‘ir kunlaring tasvirini u quyidagicha chizadi: Shu kundan boshlab Shayxzodaning tevarak-atrofi keskin toraydi. Kuni kecha shoir hisobidan may ichib, taom eb, u bilan yaqinligidan manfaat ko‘rgan “do‘stlar” kuzgi qushlar singari issiq “o‘lka”lar tomon parvoz qildilar(177-bet).

Asarda o‘rni bilan dialog usulidan foydalanilganki, ularda ham mana shunday badiiy ifodalar talaygina. Voqelikni poetik ifodalash imkoniyatlari anchagina mavjud ekanligiga yuqorida e’tibor qaratganimiz ikki ma’rifiy nasr ham dalolat beradi. Bundan tashqari, asar qahramonining aniq timsoli, botiniy olami, o‘y-kechinmalari, dard-iztiroblari, orzu-armonlari teran his etilishini ta’minalash uchun ham muallif badiiy ifoda usulidan samari foydalanganki, bu hujjatlilikni, ilmiylikni biroz bo‘lsa ham adabiylashtirgan. Mana shunday poetik obrazlar vositasida voqelikka badiiy yondashish asar o‘sha o‘rinlarining ta’sirli va go‘zal chiqishini ta’minalagan bo‘lsa, hujjatlarga murojaat qilingan o‘rinlarda ilmiy ocherklik, tadqiq ruhi ustunlik qiladi. Bu ikki hodisaning uyg‘unligi asarning o‘qilishi va esda saqlanishini ancha engillashtiradi.

Naim Karimov har ikki ma’rifiy romani qahramonlarini o‘quvchi ko‘z oldida jonli tasvirlashga, ularning yashagan davri, muhiti, hayoti va ijodini, qalb kechinmalarini yorqin ifodalashga, o‘quvchilarda ular bilan zamondosh, suhbatdosh kabi tuyg‘uni uyg‘otishga intiladi va bunga erishadi. Bu asarlar orqali biz Cho‘lpon va Maqsud Shayxzodani o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rgandek, tanigandek, bilgandek bo‘lamiz. Go‘yo kitobxon oldida ularning hech qanday sirlari qolmagandek tuyuladi. Ular bilan shu darajada yaqin bo‘lamiz. Quvonch-u tashvishlariga sherik bo‘lib, ular yashagan shafqatsiz tuzumga nisbatan nafrat hissini sezamiz. Mana shu natijaning o‘zi muallifning ma’rifiy-estetik maqsadiga erishganidan dalolat beradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Каримов Н. Мақсуд Шайхзода. Маърифий-биографик роман. – Тошкент: Шарқ, 2009.
2. Каримов Н. Чўлпон. Маърифий роман. - Тошкент: Шарқ, 2003.
3. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.

**“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI  
TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

4. Умиров X. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2004.
5. Зайнитдинов А. Бадиий асарда факт ва тўқима. – Тошкент: Ўзбекистон, 1980.